

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

RUZMETOVA GULIRA'NO ATABEKOVNA

**INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna. Inson kapitalini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	3
Рузметова Гулираъно Атабековна. Региональные особенности развития человеческого капитала (на примере Хорезмской области)	31
Ruzmetova Gulirano Atabekovna. Regional features of human capital development (on the example of the Khorezm region).....	63
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published articles.....	68

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

RUZMETOVA GULIRA'NO ATABEKOVNA

**INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD /Iqt5189 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sherov Alisher Bakberganovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudayberganov Dilshod Tuxtaboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ruzmetov Sherzodbek Baxtiyarovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson kapitali jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim strategik resurslardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. XXI asr sharoitida bu tushuncha avvalgidek faqat ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari bilan cheklanmay, balki u keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy omillar, texnologik rivojlanish darajasi, axborotga bo'lgan ochiqlik, gender tengligi, ijtimoiy adolat, intellektual salohiyat va innovatsion faoliyat kabi ko'rsatkichlar bilan integratsiyalashgan holatda baholanishi bilan ajralib turadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, inson kapitaliga investitsiya qilingan mamlakatlarning yalpi ichki maxsuloti (YaIM) o'sishi boshqa mamlakatlarga qaraganda 2-3% ga yuqori bo'lishini bir qator ilmiy tadqiqotlar ishlari natijalarida ko'rish mumkin¹. Shu sababli inson kapitaliga sarmoya kiritish mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun inson kapitalini rivojlanishiga qanday omillar birlamchi ta'sir ko'rsatishi, inson kapitali rivojlanishini ta'minlovchi sohalarini yanada rivojlantirish, ularni davlat va xususiy sektor yordamida moliyalashtirish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida inson kapitalini rivojlantirish va uni hududlar kesimida takomillashtirish masalasi keng e'tirof etilmoqda. Inson kapitali nafaqat ishlab chiqarish omili, balki innovatsion salohiyat, raqobatbardoshlik va iqtisodiy barqarorlikni belgilovchi strategik resurs sifatida talqin qilinmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitali indeksidagi kichik o'sish iqtisodiy o'sish sur'atlarini sezilarli darajada tezlashtiradi. Bu esa ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiya yo'naltirishning strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitali va mintaqaviy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, ayniqsa, iqtisodiy tashabbuslarning hududiy diversifikatsiyasi sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mintaqalarda inson resurslarini rivojlantirish va uning hududiy taraqqiyotga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borilishi muhimdir.

Yangi O'zbekistonda inson kapitali taraqqiyotning asosiy omiliga aylangan, muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan yig'ilishda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi dolzarb muammolar chuqur tahlil qilinib, mavjud tizimning real holati tanqidiy baholandi². Shulardan kelib chiqqan holda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishning asosiy g'oyalaridan biri hisoblangan inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan, ya'ni aholining ehtiyojlariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, madaniyat va sport sohalarida, xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida tizimli ishlarni davom ettirish belgilangan. Jumladan, ta'lim sohasida, maktablarda amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish, maktablarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash uchun "Mening maktabim" loyihasi doirasida qo'shimcha resurslar ajratish, o'qituvchilarga qo'shimcha ustamalar to'lash, nodavlat umumta'lim

¹ World Bank – Human Capital Project, <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 5-iyul kuni oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqiga oid rasmiy bayonot

tashkilotlari sonini keskin oshirish, xorijiy OTMlarda davlat grantlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish, OTMlarning ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasida raqamli xizmatlarni kengaytirish hamda tibbiyot xizmatlarini ko'rsatishda elektron to'lov tizimlaridan keng foydalanish, aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemiologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida profilaktik emlash tadbirlarini izchil davom ettirish, erta nikoh va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohni taqiqlash hamda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qonunchilikni ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va kambag'allikni qisqartirish sohalarida olib borilayotgan islohotlar tizimlilik va hududiy aniqlik bilan yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi "Xorazm viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³gi PQ-410-son qarori, 2025-yil 28-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴gi PQ-152-son qarori, 2025-yil 19-maydagi "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵gi PF-88-son Farmoni hamda 2025-yil 11-martdagi "Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"⁶gi 158-sonli qarori, shunga mos ravishda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-maydagi "Hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlash uchun kadrlarning o'zaro tajriba almashishi va zamonaviy ish uslublarini o'rgatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"⁷gi 316-sonli qarori asosida ham zarur tashkiliy va metodik ishlar belgilangan. Ushbu hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida Xorazm viloyati hokimi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinib, ularning amaliy ijrosi mahalliy darajada yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi "Xorazm viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-410-son qarori

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-152-son qarori

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-88-son Farmoni

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi "Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 158-sonli qarori

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-maydagi "Hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlash uchun kadrlarning o'zaro tajriba almashishi va zamonaviy ish uslublarini o'rgatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 316-sonli qarori

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Inson kapitali nazariyasining asosini Djekob Minser⁸, Garri Bekker⁹ va Teodor Shuls¹⁰ shakllantirgan.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishning nazariy-metodologik muammolari Muxametova A.T.¹¹, Yakovenko N.V., Safonova I.V.¹², Berejnaya O.V., Glaz V.N., Strukova Ye.G., Goshokov A.X.¹³, Pochkin O.Y.¹⁴, Doroxov M.V.¹⁵, Aslaxanova S.A., Beksultanova X.A.¹⁶, Dyagilev D.A., Zlokazov A.V., Adov I.B., Kaloshin T.Yu. iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirishi va undan samarali foydalanishning amaliy va nazariy-metodologik muammolari Abduraxmanov K.X.¹⁷, Ubaydullaeva G.Z.¹⁸, Sultonov F.R.¹⁹, Shomiyev G.U.²⁰ hamda Aslaxanova S.A. va Beksultanova X.A.²¹. kabi mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida o'rganib chiqilgan.

Inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'siri va uning mintaqaviy xususiyatlari, hududlar taraqqiyotidagi farqlarni belgilovchi tahlil hamda prognozlashning uslubiy jihatlari Wirajing va boshqalar²², Usman va Adeyinka²³, Yu va boshqalar²⁴, Intisar va

⁸ Mincer J. Education, Income, and Human Behavior — New York: National Bureau of Economic Research, 1975.

⁹ Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education (3rd ed.). Chicago-1993// University of Chicago Press.

¹⁰ Schultz T. W. Investment in Human Capital.//1961// The American Economic Review, 51(1), 1–17.

¹¹ Мухаметова, А. Д. Эффективное использование человеческого капитала как ключевой приоритет в управлении социально-экономическим развитием региона / А. Д. Мухаметова // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. – 2017. – № 12(106). – С. 62

¹² Яковенко, Н. В. Сущность и содержание человеческого капитала и его роль в социально-экономическом развитии региона / Н. В. Яковенко, И. В. Сафонова // Проблемы региональной экологии.2020. –№ 5. – С. 129-133

¹³ Человеческий капитал в структуре социально-экономического потенциала региона / О. В. Бережная, В. Н. Глаз, Е. Г. Струкова, А. Х. Гошюков // Экономические системы. – 2021. – Т. 14, № 2. – С. 94-101

¹⁴ Почкин, О. Е. Формирование человеческого капитала в контексте интеграции экономического и социального развития региона / О. Е. Почкин // Экономика устойчивого развития. – 2021. – № 3(47). – С. 121-124.

¹⁵ Дорохов, М. В. Человеческий капитал как фактор социально-экономического развития региона / М. В. Дорохов // Ученые записки Российской Академии предпринимательства. – 2021. – Т. 20, № 4. – С. 85-89.

¹⁶ Аслаханова, С. А. Понятие человеческого капитала, его виды, формы и роль в социально-экономическом развитии региона / С. А. Аслаханова, Х. А. Бексултанова // . – 2021. – № 4(24). – С. 12-17

¹⁷ Абдурахманов К.Х. Тенденции развития человеческого капитала Узбекистана. Научный журнал. ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» № 8 (62) 2013. С.80-82

¹⁸ Ubaydullaev, G. Z. Управление человеческим капиталом как фактор социально-экономического и инновационного развития региона / Г. З. Ubaydullaev // Экономика и социум. – 2021. – № 2-2(81). – С. 250-261.

¹⁹ Султонов Ф. Р. У. Человеческий капитал как формирующий фактор устойчивого развития // Экономика и финансы (Узбекистан). 2016. №8.

²⁰ Шомиев Г.У. Формирование человеческого капитала: анализ международного опыта // Экономика и финансы (Узбекистан). 2020. №2(34), с. 111-117

²¹ Аслаханова, С. А. Понятие человеческого капитала, его виды, формы и роль в социально-экономическом развитии региона / С. А. Аслаханова, Х. А. Бексултанова // . – 2021. – № 4(24). – С. 12-17

²² Wirajing, M.A.K., Nchofoung, T.N. & Etape, F.M. Revisiting the human capital–economic growth nexus in Africa. SN Bus Econ 3, 115 (2023). <https://doi.org/10.1007/s43546-023-00494-5>

²³ Usman, F. K., & Adeyinka, O. B. (2019). Effect of human capital development on economic growth of ECOWAS member states. Advances in sciences and Humanities, 5(1), 27-42. <https://doi.org/10.11648/j.ash.20190501.14>

²⁴ Yu, T., Rong, A., & Hao, F. (2022). Avoiding the middle-income trap: The spatial–temporal effects of human capital on regional economic growth in Northeast China. Growth and Change, 53(2), 536-558. <https://doi.org/10.1111/grow.12597>

boshqalar²⁵, Nguyen va boshqalar²⁶, Adzima va Baita²⁷, Prince²⁸, Zaborovskaia va boshqalar²⁹ kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Biroq mintaqaviy miqyosda inson kapitalining rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarining nazariy, metodologik va amaliy muammolari alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan. Bu holat dissertatsiya ishida o'rganilgan ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy muammolar hamda ularni hal qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatida inson kapitalini rivojlantirishning istiqbolli va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

inson kapitali tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini nazariy jihatdan o'rganish va aniqlashtirish;

mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tahlil qilish;

mintaqada inson kapitali rivojlanishining ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va undan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

Xorazm viloyatidagi inson kapitalining asosiy ko'rsatkichlarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat samaradorligi, malaka darajasi va boshqalar) statistik va empirik jihatdan tahlil qilish;

inson kapitalining mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sirlarini baholash;

mintaqada inson kapitalini rivojlanishini klasterli yondashuvlar asosida tahlil qilish;

inson kapitalining mintaqa iqtisodiyotiga uzoq va qisqa muddatli ta'sir qilish tendensiyalarini baholash;

mintaqada inson kapitalini rivojlantirish tendensiyalarini prognozlashning ekonometrik modellarini ishlab chiqish;

Xorazm viloyatida inson kapitalini shakllantiruvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

Tadqiqot obyekti bo'lib, Xorazm viloyatidagi inson kapitalining tarkibiy qismlari hisoblangan ta'lim, sog'liqni saqlash hamda aholining ish bilan bandligini ta'minlash sohalarini.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, hududiy nomutanosiblikni qisqartirish imkonini beruvchi, inson kapitali samaradorligini oshirishga qaratilgan (ta'lim, sog'liqni saqlash va aholi bandligini ta'minlash sohalaridagi) iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

²⁵ Amna Intisar, R., Yaseen, M. R., Kousar, R., Usman, M., & Makhdam, M. S. A. (2020). Impact of trade openness and human capital on economic growth: a comparative investigation of Asian countries. *Sustainability*, 12(7), 2930. <https://doi.org/10.3390/su12072930>

²⁶ Nguyen, C.P., Schinckus, C. & Su, T.D. Determinants of Economic Complexity: A Global Evidence of Economic Integration, Institutions, and Internet Usage. *J Knowl Econ* 14, 4195–4215 (2023). <https://doi.org/10.1007/s13132-022-01053-3>

²⁷ Adzima, K., & Baita, K. (2019). The impact of governance on economic growth: An empirical assessment in Sub-Saharan Africa. Available at SSRN 3470607. <https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3470607>

²⁸ Nathaniel, S. P. (2021). Natural resources, urbanisation, economic growth and the ecological footprint in South Africa: The moderating role of human capital. *Quaestiones Geographicae*, 40(2), 63-76. <https://doi.org/10.2478/quageo-2021-0012>

²⁹ Zaborovskaia, O., Nadezhina, O., & Avduevskaya, E. (2020). The impact of digitalization on the formation of human capital at the regional level. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 6(4), 184. <https://doi.org/10.3390/joitmc6040184>

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida induksiya va diduksiya, tahlil va sintez, shuningdek, inson kapitalining mintaqaviy rivojlanishga ta'sirini baholashda strukturaviy tenglamalar orqali modellashtirish (SEM), hududlarni guruhlashda K-means klasterlash, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy ta'sirni aniqlashda lagli taqsimot modellari, shuningdek, prognozlashda esa autoregressi vachiziqli regression kabi zamonaviy statistik tahlil usullari foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida inson kapitali (HC – human capital) omilini bevosita ijobiy ta'siri (direct effect), boshqaruv va institutsional sifat (GIQ – Governance and Institutional Quality), ekologik sifat (EQ – Environmental Quality), infratuzilma rivojlanishi (ID – Infrastructure Development) omillari orqali bilvosita ijobiy ta'siri (indirect effect) ustuvorligini tavsiflovchi SEM (Structural Equation Modeling) modeli taklif etilgan;

mintaqani inson kapitali ko'rsatkichlari asosida “K-means” klasterlash usuli bo'yicha “yuqori darajadagi inson kapitali klasteri – {Urganch sh.}”, “o'rta darajadagi inson kapitali klasteri – {Xiva sh., Yangiariq, Yangibozor}”, “o'rta darajadan past inson kapitali klasteri – {Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot}”, “past darajadagi inson kapitali klasteri – {Tuproqqa'la}” ga ajratish taklif etilgan;

inson kapitalini ifodalovchi ta'lim sohasiga investitsiyalar, sog'liqni saqlash xarajatlari, bandlik darajasi omillarining yalpi hududiy mahsulot hajmiga mos ravishda qisqa muddatli (+0.48%; +0.26%; +0.67%) va uzoq muddatli (+6.34%; +5.29%; +2.46%) ta'sir darajasini aniqlash modeli taklif etilgan;

mintaqa inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

inson kapitali omilini mintaqqa iqtisodiy o'sishiga bevosita ijobiy ta'siri hamda boshqaruv va institutsional sifat, ekologik sifat, infratuzilma rivojlanishi omillari orqali esa bilvosita ijobiy ta'sirlarni shuningdek, ushbu ta'sirlar orqali yuqoridagi omillarning umumiy ta'sir darajalarini aniqlash imkonini bergan;

mintaqa shahar va tumanlarini klasterlarga (sinflarga) ajratish hamda ushbu hududlarda inson kapiatlini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan;

inson kapitalini asosiy ko'rsatkichlarining mintaqqa iqtisodiy taraqqiyotiga uzoq va qisqa muddatli ta'sirini hisoblash va bu orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun aniq instrumentlarni belgilash imkonini bergan;

mintaqa inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarining o'rta muddatli davrga prognozlashning qo'shimcha imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasidan olingan ma'lumotlar, shuningdek, tegishli xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar inson kapitalining mintaqaviy rivojlanishga ta'sirini

tahlil qilishga oid nazariy yondashuvlarni chuqurlashtiradi hamda ularni Xorazm viloyati misolida empirik asosda boyitadi. Taklif etilgan strukturaviy tenglamalar modeli (SEM), K-means klasterlash usuli va regressiya tahlillariga asoslangan yondashuvlar inson kapitali ko'rsatkichlarini kompleks baholash, mintaqaviy tafovutlarni aniqlash va ular asosida samarali hududiy siyosat ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida Xorazm viloyati sharoitida inson kapitalini rivojlantirishga oid ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi va prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ular hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda, xususan ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik siyosatini hududiy sharoitlarga moslashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tegishli vazirliklar, mahalliy boshqaruv organlari, hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi determinantlar inson kapitali (HC – human capital) omilini bevosita ijobiy ta'siri (direct effect), boshqaruv va institutsional sifat (GIQ – Governance and Institutional Quality), ekologik sifat (EQ – Environmental Quality), infratuzilma rivojlanishi (ID – Infrastructure Development) omillari orqali bilvosita ijobiy ta'siri (indirect effect) ustuvorligini tavsiflovchi SEM (Structural Equation Modeling) modeli bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-54-sonli qarorining ijrosi haqida"gi 70-12-0-Q/24-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-maydagi 7-2117-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi inson kapitali omilini mintaqqa iqtisodiy o'sishiga bevosita ijobiy ta'siri hamda boshqaruv va institutsional sifat, ekologik sifat, infratuzilma rivojlanishi omillari orqali esa bilvosita ijobiy ta'sirlarni shuningdek, ushbu ta'sirlar orqali yuqoridagi omillarning umumiy ta'sir darajalarini aniqlash imkonini bergan;

mintaqani inson kapitali ko'rsatkichlari asosida "K-means" klasterlash usuli bo'yicha "yuqori darajadagi inson kapitali klasteri – {Urganch sh.}", "o'rta darajadagi inson kapitali klasteri – {Xiva sh., Yangiariq, Yangibozor}", "o'rta darajadan past inson kapitali klasteri – {Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot}", "past darajadagi inson kapitali klasteri – {Tuproqqa'la}" ga ajratish bo'yicha taklifi Xorazm viloyati hokimining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-54-sonli qarorining ijrosi haqida"gi 70-12-0-Q/24-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-maydagi 7-2117-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqqa shahar va tumanlarini klasterlarga (sinflarga) ajratish hamda ushbu hududlarda inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini bergan;

inson kapitalini ifodalovchi ta'lim sohasiga investitsiyalar, sog'liqni saqlash xarajatlari, bandlik darajasi omillarining yalpi hududiy mahsulot hajmiga mos ravishda qisqa muddatli (+0.48%; +0.26%; +0.67%) va uzoq muddatli (+6.34%; +5.29%; +2.46%) ta'sir darajasini aniqlash modeli bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimining

“Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-54-sonli qarorining ijrosi haqida”gi 70-12-0-Q/24-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-maydagi 7-2117-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida inson kapitalini asosiy ko‘rsatkichlarining mintaqa iqtisodiy taraqqiyotiga uzoq va qisqa muddatli ta’sirini hisoblash va bu orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun aniq instrumentlarni belgilash imkonini bergan;

mintaqa inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarining o‘rta muddatli davrga mo‘ljallangan prognoz qiymatlarini ishlab chiqish bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimining “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-54-sonli qarorining ijrosi haqida”gi 70-12-0-Q/24-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 30-maydagi 7-2117-son ma’lumotnomasi). Mazkur tadqiqot natijasini amaliyotda qo‘llash orqali mintaqa inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarining o‘rta muddatli davrga prognozlashning qo‘shimcha imkoniyatini aniqlashga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari jami 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 7 ta tezislar chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan tashkil topgan. Dissertatsiya ishi umumiy hajmi 138 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Inson kapitali konsepsiyasi shakllanishining nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida Inson kapitali nafaqat ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi, balki mintaqaviy darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning samarali vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Kapital tushunchasi lotincha “capitalis” so‘zidan olingan bo‘lib, u keng ma’noda insonlar tomonidan iqtisodiy resurslarni yaratishda foydalaniladigan aktivlarni, tor ma’noda esa ishlab chiqarish vositalarini bildiradi. Bu tushuncha o‘z ichiga moddiy, intellektual va moliyaviy resurslarni oladi hamda ular ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Ko‘plab iqtisodchi olimlar inson kapitalining nazariy rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilganlar. Ularning tahlillariga tayanib, inson kapitali konsepsiyasining shakllanishi to‘rtta asosiy bosqichga bo‘linadi (1-rasm). Inson kapitali hozirgi davrda iqtisodiyotni rivojlantiruvchi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u nafaqat mehnat unumdorligi, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi uchun ham muhim mezon hisoblanadi. U metodologik individualizm konsepsiyasi asosida har qanday darajadagi tizimga ta’sir etuvchi murakkab nazariya sifatida rivojlanmoqda. (1-rasm).



1-rasm. Inson kapitali nazariyasining asosiy yo‘nalishlari³⁰

Rasmga ko‘ra, inson kapitalining qiymatini baholash uning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu baholash asosida mavjud resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi. Natijada, inson kapitalining rivojlanishini ta’minlovchi chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inson kapitaliga turli olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan turlicha ta’riflar, izohlar berilgan. Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda BMT Taraqqiyot dasturi kabi yirik tashkilotlar inson kapitaliga oid turli ta’riflarni ilgari surishgan (1-jadval).

1-jadval.

Inson kapitali va ijtimoiy kapital tushunchalarining ta’rifi³¹

Tashkilotlar nomi	Inson kapitali	Ijtimoiy kapital
Jahon banki	Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda talab qilinuvchi va muayyan bir shxs tomonidan egallagan bilim, malaka, ko‘nikma kabi sifatlarning yig‘indisi	Belgilangan maqsadlarga erishish borasida insonlarga o‘z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy tuzilmalarda qaror topgan me‘yor va ijtimoiy munosabatlar
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	Inson tomonidan egallangan va uning mehnat samaradorligini oshirishga imkon beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarning yaxlitligi. Inson kapitalini ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik kabilarga sarmoya kiritish orqali ko‘paytirish va sifatini yaxshilash mumkin	Jamoaviy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi o‘zaro aloqalar, urf-odatlar va institutlarni o‘z ichiga oladi
Birlashgan Millatlar Tashkiloti	Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy farovonlikka imkon beruvchi shaxsiga tegishli bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar	Umumiy maqsadlarga erishish uchun guruh ichida yoki guruhlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikka zamin yaratuvchi o‘zga shaxslarning qadriyatlarini, urf- odatlari,

³⁰ Sen A. Development as Freedom.(chapter-3 “Freedom and the Foundations of Justice”, pp. 54-86) Oxford: Oxford University Press. ISBN: 9780198297581, asari asosida.Muallif ishlanmasi

³¹ Ruzmetova G.A. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalini tadqiq qilishdagi yondashuvlar. Iqtisodiyot va ta’lim 2023 6-son b-333

Taraqqiyot dasturi	axloqiy me'yorlarini hurmat qilgan holda ijtimoiy hayotda ishtirok etish ³²
---------------------------	--

Ushbu ta'riflar umumiy jihatdan bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarning shaxs farovonligi va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy kapital bu insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, munosabatlar va hamkorlik imkoniyatlarining yig'indisi sifatida qaraladi.

Jahon banki va xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan inson kapitali konsepsiyasini milliy strategiyalar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mustahkamlangan huquqiy asoslar bilan uyg'un holda tatbiq etish, xususan, "Ta'lim to'g'risida"³³gi O'RQ-637-sonli qonun, "Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish strategiyasi"³⁴ (PF-5590) va "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"³⁵ doirasida davlat byudjeti orqali mazkur resursni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Xorazm viloyati Mahalliy budjetidan ta'lim, sog'liqni saqlash hamda aholi bandligini ta'minlash xarajatlari (mlrd.so'm)³⁶

№	Soha	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Mahalliy budjetning jami xarajatlari	2278.9	3347.0	4488.2	5679.1	4700.7
	<i>shundan:</i>					
1.1.	Ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlash xarajatlari	1487.8	2155.5	2637.8	3268.5	2925.5
1.1.1.	Ta'lim xarajatlari	321.6	522.9	661.0	873.4	1069.0
1.1.2.	Sog'liqni saqlash xarajatlari	905.9	963.7	1225.5	1442.1	1660.7

2-jadval ma'lumotlariga asoslangan holda, 2020–2024-yillarda Xorazm viloyatining mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi tahlili ijtimoiy soha uchun yo'naltirilgan mablag'larning izchil o'sishini ko'rsatadi. Mahalliy byudjet xarajatlari 2020-yilda 2 278,9 mlrd so'mdan 2023-yilda 5 679,1 mlrd so'mgacha ortgan bo'lsa-da, 2024-yilda 4 700,7 mlrd so'mgacha qisqargan. Ijtimoiy soha va aholining qo'llab-quvvatlash xarajatlari 2020–2023-yillar oralig'ida ikki baravardan ko'proqqa oshgan bo'lib, bu davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatini aks ettiradi.

Xususan, ta'lim xarajatlari besh yil ichida 312,6 mlrd so'mdan 1 069,0 mlrd so'mga, sog'liqni saqlash xarajatlari esa 905,9 mlrd so'mdan 1 660,7 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sishlar viloyatda inson kapitaliga bo'lgan sarmoyaning ortayotganidan dalolat berib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida baholanishi mumkin.

³² European Council Council conclusions on reference levels of European average performance in education and training (Benchmarks). /2003/. Brussels.

³³ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli qonuni

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.12.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-son

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni PF-60-son

³⁶ Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2020-2024-yillarga oid davriy moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Dissertatsiyaning “**Xorazm viloyatida inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omillari tahlili**”, deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqada inson kapitalini rivojlantirish ko‘rsatkichlari tahlili, inson kapitali omilining mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga bevosita hamda boshqaruv va institutsional sifat, ekologik sifat, infratuzilma rivojlanishi omillari orqali bilvosita ta’sir darajalarini aniqlovchi SEM (Structural Equation Modeling) modellari, shuningdek, mintaqani inson kapitali ko‘rsatkichlari asosida “K-means” bo‘yicha “Evkilid metrikasi” dan foydalangan holda shahar va tumanlarni klasterlarga (sinflarga) ajratish usuli tadqiq qilingan.

Mazkur tadqiqot ishimizda SEM modeli orqali inson kapitali, boshqaruv va institutsional sifat, ekologik sifat va infratuzilma rivojlanishi omillarning mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari inson kapitali, boshqaruv, ekologiya va infratuzilma va mintaqa iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Mazkur munosabatlarni aniqlashda SPSS, AMOS dasturiy paketlaridan samarali foydalanildi. So‘nggi besh yil ichidagi Scopus, Springer, Web of Science, ResearchGate xalqaro nufuzli ilmiy bazalardagi jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi mintaqalar uchun inson kapitaliga sarmoya kiritish, boshqaruvni yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va infratuzilmani rivojlantirish strategiyalarining muhimligini ta’kidlaydi. Quyida ushbu tadqiqotlarga asoslangan holda gipotezalar shakllantirildi va sinovdan o‘tkazildi.

H_1 (*bevosita ta’sir*) gipoteza: Inson kapitali (HC) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED);

H_2 (*bevosita ta’sir*) gipoteza: Boshqaruv va institutsional sifat (GIQ) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED);

H_3 (*bevosita ta’sir*) gipoteza: Ekologik sifat (EQ) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED);


H_4 (*bevosita ta’sir*) gipoteza: Infratuzilma rivojlanishi (ID) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED);

H_5 (*bilvosita ta’sir*) gipoteza: Inson kapitali (HC) → Boshqaruv va institutsional sifat (GIQ) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED);

H_6 (*bilvosita ta’sir*) gipoteza: Inson kapitali (HC) → Ekologik sifat (EQ) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED);

H_7 (*bilvosita ta’sir*) gipoteza: Inson kapitali (HC) → Infratuzilma rivojlanishi (ID) → Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi (RED)

Yuqoridagi gipotezalarga asoslangan holda shakllantirmoqchi bo‘lgan SEM modelining kontseptual asosini quyidagi rasmda ifodalab olamiz (2-rasm)



2-rasm. SEM modelning konseptual asosi³⁷

Mazkur tadqiqot ishimizdagi Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) Maksimal ehtimollik baholash (MLE - Maximum Likelihood Estimation) usuli bilan baholanadi. Model quyidagi tenglamalarni o‘z ichiga oladi:

$$ID = \alpha_1 + \beta_1 * HC + \epsilon_1 \quad (1)$$

$$EQ = \alpha_2 + \beta_2 * HC + \epsilon_2 \quad (2)$$

$$GIQ = \alpha_3 + \beta_3 * HC + \epsilon_3 \quad (3)$$

$$RED = \alpha_4 + \beta_4 * HC + \beta_5 * ID + \beta_6 * EQ + \beta_7 * GIQ + \epsilon_4 \quad (4)$$

bu yerda: $\alpha_1, \alpha_2, \alpha_3, \alpha_4$ – ozod had, $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4, \beta_5, \beta_6, \beta_7$ – to‘g‘ridan – to‘g‘ri ta‘sir (direct effect) ni ifodalovchi koeffitsiyentlar, $\epsilon_1, \epsilon_2, \epsilon_3, \epsilon_4$ – xatolik (error term). Model adekvatligi natijalari odatda Kronbax alfa koeffitsiyenti (Cronbach's Alpha), Chi-kvadrat testi (Chi-square test), CFI (Comparative Fit Index), TLI (Tucker-Lewis Index), RMSEA (Root Mean Square Error of Approximation) va SRMR (Standardized Root Mean Square Residual) lar baholanadi. Quyidagi jadvalda modelning adekvatligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qiymatlari berilgan (3-jadval).

3-jadval.

Model adekvatligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar natijalari³⁸

Ko‘rsatkich	Qiymat
Chi-square/df	3.28
	HC=0.85
	GIQ=0.84
Cronbach’s Alpha	EQ=0.83
	ID=0.80
	RED=0.87
CFI	0.93
TLI	0.91
RMSEA	0.05

³⁷ Manba: Muallif ishlanmasi

³⁸ Manba: Muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Chi-kvadrat testi qiymati 3.28 ga teng, Chi-kvadrat qiymati erkinlik darajasiga (degrees of freedom) nisbatan baholanadi. Ideal holda, χ^2/df nisbati (normallashtirilgan Chi-kvadrat) 2 dan 5 gacha bo'lishi kerak ya'ni o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjudligini ifodalaydi. Kronbax alfa koeffitsiyentlari barcha konstruktalarda 0.80 dan 0.87 gacha bo'lib, bu o'lchovlarning yuqori darajada ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Eng yuqori mustahkamlik RED (0.87) va HC (0.85) konstruktarda, eng past esa ID (0.80) da kuzatildi. Umumiy holda, barcha konstruktardagi o'lchovlar SEM tahlili uchun ishonchli deb topildi.

Endi shakllantirilgan Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM) natijalariga to'xtalib o'tamiz (4-jadval).

4-jadval.

Strukturaviy Tenglamalar Modeli (SEM)ning baholash natijalari³⁹

Gipotezalar	Bog'liqlik	Koeffitsiyent	Standart xatolik	P-value	Natija
Bevosita ta'sirlar (Direct Effects)					
H_1	HC → RED	0.420	0.085	0.000***	Qabul qilindi
H_2	GIQ → RED	0.200	0.100	0.080*	Qabul qilindi
H_3	EQ → RED	0.280	0.095	0.020**	Qabul qilindi
H_4	ID → RED	0.350	0.090	0.010***	Qabul qilindi
	HC → ID	0.650	0.070	0.000***	
	HC → EQ	0.580	0.075	0.000***	
	HC → GIQ	0.520	0.080	0.000***	
Bilvosita ta'sirlar (Indirect Effects)					
H_5	HC → GIQ → RED	0.104	0.070	0.100*	Qabul qilindi
H_6	HC → EQ → RED	0.162	0.065	0.090*	Qabul qilindi
H_7	HC → ID → RED	0.228	0.060	0.030**	Qabul qilindi
Umumiy ta'sirlar (Total Effects)					
	HC → RED	0.914	0.090	0.000***	
	GIQ → RED	0.200	0.100	0.080*	
	EQ → RED	0.280	0.095	0.020**	
	ID → RED	0.350	0.090	0.010***	
	HC → ID	0.650	0.070	0.000***	
	HC → EQ	0.580	0.075	0.000***	
	HC → GIQ	0.520	0.080	0.000***	

Izoh: *, **, *** - mos ravishda 10%, 5%, 1% statistik jihatdan ahamiyatlilik darajalari

Yuqorida 4-jadvaldagi koeffitsiyentlarni interpretatsiya qiladigan bo'lsak, H_1 gipotezaga ko'ra, Inson kapitalining mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri statistik jihatdan sezilarli va o'rtacha darajada kuchli. Miqdoriy jihatdan, inson kapitali ko'rsatkichlarida 1 birlik o'sish REDda 0.42 birlik o'sishga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan, yuqori malakali ishchi kuchi mahsuldorlikni oshiradi va innovatsiyalarni joriy qilish imkonini beradi, bu esa mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga bevosita hissa qo'shadi.

³⁹ Manba: Muallif ishlanmasi.

H_2 gipotezaga ko‘ra, Boshqaruv va institutsional sifatning ta‘siri zaifroq, ammo statistik jihatdan qabul qilinadi. 1 birlik GIQ o‘shishi REDda 0.20 birlik o‘shishga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan, adolatli qonunchilik, korrupsiyaga qarshi choralar va samarali boshqaruv iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Zaif ta‘sir mintaqada boshqaruv tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi, bu esa islohotlar zarurligini ta‘kidlaydi.

H_3 gipotezaga ko‘ra, Ekologik sifatning REDga ta‘siri o‘rtacha. 1 birlik EQ o‘shishi REDda 0.28 birlik o‘shishga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan ekologik barqarorlik (toza havo, suv, qayta tiklanadigan energiya) uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun muhim. Ekologik sifatning yaxshilanishi sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytiradi va ekoturizm kabi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi.

H_4 gipotezaga ko‘ra, Infratuzilma rivojlanishining REDga ta‘siri o‘rtacha 1 birlik ID o‘shishi REDda 0.35 birlik o‘shishga olib keladi. Iqtisodiy ahamiyati: Transport, energetika va telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Yaxshi rivojlangan infratuzilma biznes xarajatlarini kamaytiradi va mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiradi.

H_5 gipotezaga ko‘ra, Inson kapitali boshqaruv sifati orqali REDga eng zaif bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi ($0.52 \times 0.20 = 0.104$). Ya‘ni inson kapitali ko‘rsatkichlarida 1 birlik o‘shish boshqaruv sifati orqali REDda 0.104 birlik o‘shishga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan, samarali boshqaruv tizimlari iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

H_6 gipotezaga ko‘ra, Inson kapitali ekologik sifat orqali REDga zaifroq ta‘sir ko‘rsatadi ($0.580 \times 0.280 = 0.162$). Ya‘ni inson kapitali ko‘rsatkichlarida 1 birlik o‘shish ekologik sifat orqali REDda 0.162 birlik o‘shishga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan, inson kapitali ekologik xabardorlikni oshiradi va barqaror texnologiyalarni joriy qilish orqali ekologik sifatni yaxshilaydi. Ekologik loyihalarni amalga oshirish (masalan, yashil energiya) uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi, ammo bu ta‘sir qisqa muddatda cheklangan.

H_7 gipotezaga ko‘ra, Inson kapitali infratuzilma orqali REDga bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi. Miqdoriy jihatdan, HCning IDga ta‘siri (0.650) va IDning REDga ta‘siri (0.350) natijasida umumiy bilvosita effekt $0.650 \times 0.350 = 0.228$ ni tashkil qiladi. Iqtisodiy jihatdan ahamiyati malakali ishchi kuchi infratuzilma loyihalarini yaxshilaydi, bu esa iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi (masalan, transport infratuzilmasi orqali eksportni oshirish).

“K-means clustering” - bu ma‘lumotlarni o‘xshash xususiyatlar asosida guruhlarga (klasterlarga) ajratish uchun ishlatiladigan statistik usul. Bu usul ma‘lumotlarni tahlil qilishda, segmentatsiya qilishda va guruhlarni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Klasterli tahlilning asosiy maqsadi - bir-biriga yaqin bo‘lgan ob‘ektlarni bir klasterga, bir-biridan uzoq bo‘lgan ob‘ektlarni esa boshqa klasterlarga ajratishdan iboratdir. Mazkur usulda ishlatiladigan asosiy tushunchalar “klaster (cluster) – o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan ob‘ektlar to‘plami”, “masofa (distance) – ob‘ektlar orasidagi farqni o‘lchash uchun ishlatiladigan metrika (masalan, Evklid masofasi, Chebishev masofasi, Minkovskiy masofasi va boshqalar), “o‘xshashlik (similarity) – ob‘ektlarning qanchalik o‘xshash ekanligini aniqlash”.

Mazkur yondashuv metodikasi aniq formulalar yordamida quyidagicha izchillikda amalga oshiriladi hamda ifodalanadi:

1. Klasterlar sonini (k) tanlash.

Algoritmni boshlashdan oldin, ma'lumotlarni necha ta klasterga bo'lish kerakligini (k) aniqlash lozim. Bu qiymat foydalanuvchi tomonidan belgilanadi yoki Elbow Method kabi usullar yordamida taxmin qilinadi.

2. Boshlang'ich centroidlarni tanlash.

Har bir klaster uchun markaz (centroid) sifatida k ta nuqta tasodifiy tanlanadi. Bu nuqtalar ma'lumotlar to'plamidagi haqiqiy nuqtalar bo'lishi mumkin. Ya'ni agar ma'lumotlar to'plami $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ bo'lsa, har bir centroid $\mu_j (j = 1, 2, \dots, k)$ tasodifiy tanlanadi.

3. Nuqtalarni klasterlarga tayinlash.

Har bir ma'lumot nuqtasi x_i eng yaqin centroidga asoslanib klasterga tayinlanadi. Yaqinlik odatda Evklid masofasi orqali hisoblanadi. Har bir nuqta x_i uchun eng yaqin centroid μ_j quyidagicha aniqlanadi:

$$Klaster(x_i) = \underset{j}{\operatorname{argmin}} \|x_i - \mu_j\|^2 \quad (5)$$

bu yerda $\|x_i - \mu_j\|^2$ – Evkilid masofasining kvadrati:

$$\|x_i - \mu_j\|^2 = \sum_{m=1}^d (x_{i,m} - \mu_{j,m})^2 \quad (6)$$

d – ma'lumot nuqtasining o'lchamlari soni, $x_{i,m} - x_i$ ning m – o'lchami,

$\mu_{j,m} - \mu_j$ centroidining m – o'lchami

4. Centroidlarni yangilash.

Har bir klasterdagi nuqtalar o'rtacha qiymati hisoblanib, yangi centroidlar aniqlanadi. Ya'ni j – klasterdagi centroid μ_j quyidagicha yangilanadi:

$$\mu_j = \frac{1}{n_j} \sum_{x_i \in C_j} x_i \quad (7)$$

bu yerda: $C_j - j$ – klasterdagi nuqtalar to'plami, $n_j - C_j$ dagi nuqtalar soni.

Izoh: Bu jarayon klaster ichidagi nuqtalar o'rtacha qiymatini topish orqali centroidni “markazlashtiradi”.

5. Konvergenziyani⁴⁰ tekshirish.

Agar centroidlar o'zgarishi ma'lum bir chegaradan kichik bo'lsa (masalan, ϵ) yoki ma'lum bir iteratsiyalar soniga yetilsa, algoritm to'xtaydi. Aks holda, 3-bosqichga qaytib, nuqtalarni qayta tayinlash amalga oshiriladi. Bunda centroidlar o'zgarishi quyidagicha tekshiriladi:

$$\operatorname{Max}_j \|\mu_j^{\text{yangi}} - \mu_j^{\text{eski}}\| < \epsilon \quad (8)$$

mazkur shart bajarilganda, algoritm optimal yechimga yaqinlashgan deb hisoblanadi.

6. Natijalarni hosil qilish

⁴⁰ **Konvergenziya** – bu matematik va hisoblash jarayonlarida, xususan, algoritmlarda biror yechim yoki natija ma'lum bir barqaror holatga yaqinlashishi yoki unga yetib kelishi jarayonidir. K-means klasterlash algoritmi kontekstida konvergenziya algoritmning maqsad funksiyasi ($WCSS$) minimal yoki barqaror qiymatga yetganda yuz beradi, ya'ni centroidlarning o'zgarishi deyarli to'xtaydi va klasterlar barqaror holatga keladi.

Algoritm tugagach, har bir nuqta o'z klasteriga tayinlangan bo'ladi va har bir klasterning centri aniqqlanadi. *WCSS* qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$WCSS = \sum_{j=1}^k \sum_{x_i \in C_j} \|x_i - \mu_j\|^2 \quad (9)$$

Izoh: *WCSS* klasterlash sifatini baholash uchun ishlatiladi; kichik *WCSS* yaxshi klasterlashni anglatadi.

Yuqoridagi K-means algoritmi asosida Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko'rsatkichlari asosida bir-biriga yaqinlik matritsasi shakllantirildi (5-jadval).

5-jadval

Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko'rsatkichlari asosida bir-biriga yaqinlik matritsasi ("Evkilid masofasi kvadrati" asosida hisoblangan)⁴¹


Shahar va tumanlarning nomlari	Urganch sh.	Xiva sh.	Bog'ot	Gurlan	Qo'shko'pir	Urganch	Hazorasp	Tuproqqal'a	Xonqa	Xiva	Shovot	Yangiariq	Yangibozor
Urganch sh.	0.000												
Xiva sh.	19.055	0.000											
Bog'ot	4.038	8.535	0.000										
Gurlan	13.852	3.098	3.821	0.000									
Qo'shko'pir	8.401	3.699	1.972	1.064	0.000								
Urganch	5.918	7.789	0.440	2.510	1.574	0.000							
Hazorasp	6.791	6.980	1.256	2.154	1.349	1.033	0.000						
Tuproqqal'a	34.786	2.612	19.841	9.542	11.675	18.629	17.173	0.000					
Xonqa	8.030	6.006	1.629	1.660	0.552	1.065	1.012	15.095	0.000				
Xiva	12.657	2.939	3.134	0.387	0.981	2.147	1.700	9.704	1.248	0.000			
Shovot	9.991	3.932	1.984	0.479	0.501	1.131	1.132	11.734	0.617	0.406	0.000		
Yangiariq	16.461	2.668	4.718	0.962	2.283	3.690	3.609	7.727	2.588	0.590	1.306	0.000	
Yangibozor	19.104	2.577	6.587	2.048	3.559	5.416	5.969	7.070	4.610	1.669	3.019	1.035	0.000

⁴¹ Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 5-jadvalda Xorazm viloyatidagi shahar va tumanlar o'rtasidagi inson kapitali ko'rsatkichlariga asoslangan "Evkilid masofasi kvadrati"ni ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar, sog'liqni saqlash, ta'lim va bandlik darajasi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Kichik masofalar o'xshash inson kapitali darajasini, katta masofalar esa katta farqlarni ko'rsatadi.

Masofasi 1 dan kichik bo'lgan shahar va tumanlar juftliklariga e'tibor bersak o'xshashlikning yuqori darajasini ko'rsatadi. Masalan, Gurlan va Xiva (0.387), Shovot va Xiva (0.406), Bog'ot va Urganch (0.440), Qo'shko'pir va Xonqa (0.552), Qo'shko'pir va Shovot (0.501), Xonqa va Shovot (0.617). Ushbu masofalarga ko'ra, Gurlan, Xiva, Shovot, Xonqa va Qo'shko'pir kabi tumanlar bitta klasterga kirishi mumkin, chunki ular o'rtasidagi masofalar kichik. Shu bilan birga, Bog'ot va Urganch ham yaqin ekanliklari sababli boshqa klasterga kirishi mumkin. Tuproqqal'a esa boshqa joylardan ancha uzoq, masalan, Urganch sh. bilan 34.786 masofada, bu uning o'ziga xos inson kapitali profiliga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko'rsatkichlar asosida qanday shaklda klasterlarga ajralishi tasvirlangan (3-rasm).



3-rasm. Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko'rsatkichlar asosida dendrogramma tasviri⁴².

Yuqoridagi 3-rasmidagi dendrogramma tasviriga ko'ra dastlab Gurlan-Xiva klasteri hosil bo'lgan, so'ngra Bog'ot-Urganch klasteri, Qo'shko'pir-Xonqa klasteri, Yangiariq-Yangibozor klasteri, Urganch shahri, Tuproqqal'a 6 ta klaster mavjud bo'lgan. So'ngra o'xshashlik darajalari asosida Gurlan-Xiva-Shovot klasteri, Bog'ot-Urganch-Hazorasp klasteri, Qo'shko'pir-Xonqa klasteri, Yangiariq-Yangibozor-Xiva shahri klasteri, Urganch shahri, Tuproqqal'a klasterlari hosil bo'lgan. Shu tariqa oxirgi

⁴² Manba: muallif ishlanmasi.

bosqichda Xorazm viloyati shahar va tumanlarining to‘rtta klasteri hosil bo‘ldi va quyidagicha tartibda joylashtirildi (6-jadval).

6-jadval

Xorazm viloyati shahar va tumanlarining inson kapitali ko‘rsatkichlar asosida klasterlarga ajratilishi⁴³

Klaster tartib raqami	Inson kapitali darajasi	Shahar va tumanlarning nomlari
1	Yuqori daraja	Urganch shahri
2	O‘rta daraja	Xiva shahri, Yangiariq, Yangibozor
3	O‘rta darajadan past	Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot
4	Past daraja	Tuproqqa‘la

Yuqorida Xorazm viloyatidagi shahar va tumanlar o‘rtasidagi inson kapitali ko‘rsatkichlariga asoslangan “Evkilid masofasi kvadrati” ni tahlil va natijalarga asoslangan holda aytish mumkinki inson kapitali iqtisodiy o‘shish va rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. O‘xshash inson kapitaliga ega shahar va tumanlar, masalan, Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva va Shovot o‘xshash iqtisodiy imkoniyatlar va muammolarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ular ta‘lim sifatini yaxshilash yoki bandlik darajasini oshirish uchun bir xil siyosatlar talab qilishi mumkin. Mazkur iqtisodiy rivojlanishda o‘xshash potentsialga ega bo‘lishi mumkin, masalan, investitsiyalarni jalb qilish yoki ish o‘rinlarini yaratishda.

Tuproqqa‘la kabi joylar, agar u boshqa joylardan uzoq masofada bo‘lsa, bu uning inson kapitali ko‘rsatkichlarida katta farq borligini ko‘rsatadi. Klasterlar o‘rtasidagi katta masofalar (masalan, 20 dan oshiq) hududlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun qo‘shimcha sa’y-harakatlar zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni infratuzilma yoki ta‘lim sifatini oshirishga e’tibor qaratish iqtisodiy integratsiyani yaxshilashi mumkin. Yaqin klasterlardagi hududlar o‘zaro tajriba almashish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Xorazm viloyatida inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va istiqbollari”**, deb nomlangan uchinchi bobida inson kapitalini ifodalovchi ta‘lim sohasiga investitsiyalar, sog‘liqni saqlash xarajatlari, bandlik darajasi omillarining YaHM hajmiga uzoq va qisqa muddatli ta‘sirini ifodalovchi avtoregressiv lagli taqsimot modellari (ARDL) ishlab chiqilgan, shuningdek, mintaqa inson kapitalini ifodalovchi ko‘rsatkichlarini o‘rta muddatga mo‘ljallangan prognoz qiymatlarini ko‘p variantli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar aks ettirilgan.

Mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga inson kapitalini ifodalovchi ko‘rsatkichlarini uzoq va qisqa muddatli ta‘sirini aniqlash maqsadida “Avtoregressiv lagli taqsimot modellari (ARDL)” dan foydalandik. Ushbu modelni shakllantirishda natijaviy va ta‘sir etuvchi omillar sifatida quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil – Yalpi hududiy mahsulot hajmi, mlrd.so‘m – (*GRP*), ta‘sir etuvchi omillar – ta‘lim sohasiga investitsiyalar, mlrd.so‘m – (*EduInvest*), sog‘liqni saqlash xarajatlari, mlrd.so‘m – (*HCC*), bandlik darajasi, foiz – (*EmpR*).

⁴³ Manba: muallif ishlanmasi.

O'zgaruvchilarning o'lchov birligi turlicha bo'lgani hamda ko'p omilli ekonometrik modelning interpretatsiyasini (talqini) yaxshiroq tushuntirish uchun barcha omillar qiymatlarini natural logarifmlaymiz.

Ma'lumki ko'p omilli ekonometrik modellarni tuzish uchun avval vaqtli qatorlar seriyasida (modelda ishtirok etayotgan omillar uchun) avtokorrelatsiya mavjud yoki mavjud emasligi aniqlash maqsadida "Ljung-Box" (Q)⁴⁴ testidan foydalaniladi. Vaqtli qatorlarda avtokorrelatsiyaning mavjud bo'lishi mazkur vaqtli qatorlarni statsionarlikka tekshirishni talab etadi. So'ngra o'zgaruvchilarning statsionarligini tekshirish va ularni integratsiya qilish tartibini aniqlash uchun Augmented Dickey-Fuller (ADF)⁴⁵ va Phillips-Perron (PP)⁴⁶ birlik ildiz testlari qo'llaniladi.

Keyingi bosqichda o'zgaruvchilarning statsionarligini tekshirish va ularni integratsiya qilish tartibini aniqlash uchun Augmented Dickey-Fuller (ADF) va Phillips-Perron (PP) birlik ildiz testlarini o'tkazish muhimdir. O'zgaruvchilarni statsionarlikka tekshirish natijalari quyidagi jadvalda berilgan (7-jadval).

7-jadval

O'zgaruvchilarni statsionarlikka tekshirishda "ADF" va "PP" birlik ildiz testi natijalari⁴⁷

	Augmented Dickey-Fuller (ADF)				Integratsiya qilish tartibi (Order of integration)
	O'z darajasida (Levels)	Ehtimollik (Probability)	Birinchi tartibli differentsiatsiya (1 st differences)	Ehtimollik (Probability)	
<i>LOG(GRP)</i>	-1.74	0.38	-4.27	0.00	I (1)
<i>LOG(EduInvest)</i>	-0.98	0.73	-3.44	0.02	I (1)
<i>LOG(HCC)</i>	-0.66	0.82	-3.92	0.01	I (1)
<i>LOG(EmpR)</i>	-0.95	0.73	-3.89	0.01	I (1)
	Phillips-Perron (PP)				Integratsiya qilish tartibi (Order of integration)
	O'z darajasida (Levels)	Ehtimollik (Probability)	Birinchi tartibli differentsiatsiya (1 st differences)	Ehtimollik (Probability)	
<i>LOG(GRP)</i>	-4.17	0.00	-4.61	0.00	I (1)
<i>LOG(EduInvest)</i>	-1.23	0.62	-3.43	0.02	I (1)
<i>LOG(HCC)</i>	-0.66	0.82	-3.92	0.01	I (1)
<i>LOG(EmpR)</i>	-1.81	0.35	-3.25	0.04	I (1)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra yalpi hududiy mahsulot hajmi, ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ta'lim sohasidagi nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi o'zgaruvchilarining barchasi 1-tartibli differentsiatsiyasida statsionar ekan. Shuning uchun mazkur o'zgaruvchilarning barchasini tenglamaga integratsiya qilish tartibi I (1) sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, modelda ishtirok etayotgan o'zgaruvchilarni "lag (kechikish)" tartibini tanlash zarur hisoblanadi. Buning uchun vektorli avtoregressiv (VAR) modelining optimal "lag" tartibi qo'llaniladi. Avtoregressiv lagli taqsimot modeli

⁴⁴ Ljung, G.M., Box, G.P.E. (1978). On a measure of lack of fit in time series models. *J Biometrika* 65:297–303. <https://doi.org/10.1093/biomet/65.2.297>

⁴⁵ Dickey, D. A., and Fuller, W. A. (1981). Likelihood ratio statistics for autoregressive time series with a unit root. *Econometrica: journal of the Econometric Society*, 1057-1072. <https://doi.org/10.2307/1912517>

⁴⁶ Phillips, P.C.B., Perron, P. (1988). Testing for a unit root in time series regression, *Biometrika*, Volume 75, Issue 2, June, Pages 335–346, <https://doi.org/10.1093/biomet/75.2.335>

⁴⁷ Manba: muallif ishlanmasi.

uchun “Akaike mezoni (AIC)”, “Shvars mezoni (SC)” hamda “Xannan – Quinn (HQ)” mezonlari asosida “lag (kechikish)” tartibi 1 ni tashkil etmoqda.

O‘zgaruvchilar orasida uzoq va qisqa muddatli munosabatlarni topishdan oldin kointegratsiya mavjudligini tasdiqlash zarur. Buning uchun “Bog‘liqlik testi (Bound test)” dan foydalangan holda amalga oshirildi (8-jadval).

8-jadval

“Bog‘liqlik testi (Bound test)” natijalari⁴⁸

Statistik test (Test Statistic)	Qiymat (Value)	Ahamiyatlilik darajasi (Significant)	Quyi chegara (Lower bound) I(0)	Yuqori chegara (Upper bound) I(1)
F-statistic	108.5501	10%	2.37	3.2
		5%	2.79	3.67
		1%	3.65	4.66

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mukinki, F-statistika qiymati barcha ahamiyatlilik darajalarida asimptotik kritik qiymatlarning “Yuqori chegarsi (Upper bound)” dan katta. Bu holat esa kointegratsiya mavjudligini hamda uzoq va qisqa muddatli tenglamalarni shakllantirish mumkinligini ifodalaydi.

Olib borilgan hisob-kitoblar asosida uzoq va qisqa muddatli tenglamalar natijalari quyidagi jadvalda berilgan (9-jadval).

9-jadval

ARDL (1, 1, 1, 1) modeli asosida hisoblangan parametrlarni uzoq va qisqa muddatli ta’sirlarni baholash natijalari⁴⁹

Dependent Variable: <i>LOG(GRP)</i>				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
Uzoq muddatli ta’sir				
<i>LOG(EduInvest)</i>	6.3415	0.1429	44.3736	0.000***
<i>LOG(HCC)</i>	5.2914	0.8062	6.5637	0.000***
<i>LOG(EmpR)</i>	2.4603	0.6358	3.8698	0.002***
<i>C</i>	5.5671	2.3769	2.3422	0.039**
Qisqa muddatli ta’sir				
Δ <i>LOG(EduInvest)</i>	0.4833	0.1103	4.3825	0.001***
Δ <i>LOG(HCC)</i>	0.2612	0.0687	3.8008	0.002***
Δ <i>LOG(EmpR)</i>	0.6743	0.1514	4.4548	0.000***
<i>ECM (-1)</i>	-0.1876	0.0221	-8.4782	0.000***

*Izoh: *,**,*** - mos ravishda 10%; 5%; 1% darajalari uchun statistik ahamiyatli.*

Yuqoridagi 9 – jadvalga ko‘ra, Ta’lim sohasiga investitsiyalar uzoq muddatda mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Har 1% ta’lim investitsiyalarining o‘shishi yalpi hududiy mahsulot hajmini taxminan 6.34% ga oshiradi. t-statistika (44.37) va ehtimollik qiymati (0.000) bu ta’sirning statistik jihatdan juda muhim ekanligini tasdiqlaydi (1% dan kam). Iqtisodiy jihatdan bu ta’lim infrastrukturasi va resurslarini rivojlantirish uzoq muddatda mintaqaviy iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

⁴⁸ Manba: muallif ishlanmasi.

⁴⁹ Manba: muallif ishlanmasi.

Sog'liqni saqlash xarajatlari ham yalpi hududiy mahsulot hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har 1% lik sog'liq xarajatlarining o'sishi yalpi hududiy mahsulot hajmini taxminan 5.29% ga oshiradi. t-statistika (6.56) va ehtimollik (0.000) bu ta'sirning ham statistik jihatdan muhim ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan sog'liqni saqlashga sarmoya kiritish uzoq muddatda mehnat unumdorligini oshirib, iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

Bandlik darajasining o'sishi ham yalpi hududiy mahsulot hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin ta'lim va sog'liq xarajatlari ta'siridan kamroq. Har 1% bandlikning oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmini taxminan 2.46% ga oshiradi. t-statistika (3.87) va ehtimollik (0.002) bu ta'sirning 1% darajasida statistik jihatdan muhim ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan bandlikni oshirish daromadlar va iste'molni ko'tarib, iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Modeldagi konstanta (C) qiymati 5.5671 bo'lib, u boshqa o'zgaruvchilar hisobga olinmagan holda boshqa omillar (masalan, texnologik taraqqiyot yoki tabiiy resurslar) ning har 1% oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmining taxminan 5.57% ga oshiradi. t-statistika (2.38) va ehtimollik (0.039) bu qiymatning 5% darajasida statistik jihatdan muhim ekanligini ko'rsatadi.

Endi qisqa muddatli ta'sirni ifodalovchi parametrlarni iqtisodiy jihatdan interpretatsiya qiladigan bo'lsak. Ta'lim sohasiga investitsiyalar 1% oshsa, mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi qisqa muddatda 0.48% ga oshadi. t-statistika (4.3825) va ehtimollik ($0.001 < 0.01$) ko'rsatkichlari shuni anglatadiki, bu ta'sir statistik jihatdan 1% darajadagi ishonchlilik bilan muhimdir. Iqtisodiy jihatdan bu, qisqa muddatda ta'lim infratuzilmasi va resurslari rivojlanishi orqali mehnat unumdorligi oshishi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash xarajatlari 1% ga oshsa, mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi qisqa muddatda 0.26% ga oshadi. t-statistika (3.8008) va ehtimollik ($0.002 < 0.01$) ko'rsatkichlari bu ta'sirning 1% darajadagi ishonchlilik bilan muhim ekanligini tasdiqlaydi. Iqtisodiy jihatdan qisqa muddatda sog'lom ishchi kuchi mehnat samaradorligini oshiradi va bu esa iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Bandlik darajasi 1% ga oshsa, mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi qisqa muddatda 0.67% ga oshadi. t-statistika (4.4548) va ehtimollik ($0.000 < 0.01$) ko'rsatkichlari bu ta'sirning 1% darajadagi ishonchlilik bilan juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan qisqa muddatda ham bandlikning oshishi daromadlar va iste'mol darajasini ko'tarib, iqtisodiy faoliyatni faollashtiradi.

$ECM(-1)$ (Error-correction Mechanisms)⁵⁰ koeffitsiyenti, qisqa muddatli dinamika va uzoq muddatli muvozanat o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. ECM koeffitsiyenti, odatda, uzoq muddatli muvozanatdan qisqa muddatli og'ishlarni qanday tezlikda tuzatishini ko'rsatadi. Bu koeffitsiyent manfiy qiymatga ega bo'lishi kerak, chunki u og'ishlarni muvozanatga qaytarish jarayonini anglatadi. Bu salbiy qiymat ECMning qisqa muddatli og'ishlarni uzoq muddatli muvozanatga qaytarishga yordam berishini ko'rsatadi. Salbiy belgi shuni anglatadiki, agar qisqa muddatda tashqi omillar yoki to'siqlar tufayli bu munosabat buzilsa (masalan, ta'limga investitsiyalarni oshishi mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga kutilganidan kamroq ta'sir qilsa), iqtisodiy

⁵⁰ Levendis, J.D. (2023). Cointegration and VECMs. In: Time Series Econometrics. Springer Texts in Business and Economics. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-37310-7_12

tizim o‘z-o‘zidan muvozanatga qaytishga harakat qiladi. Bu koefitsient har bir davrda uzoq muddatli muvozanatdan chetga chiqqan qismning 18.76% ning tuzatilishini anglatadi. Ya’ni, agar joriy davrda o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabat uzoq muddatli muvozanatdan 1% ga og‘ishsa, keyingi davrda bu og‘ishning 0.1876% ga yaqin qismi qoplanadi.

Tadqiqot ishimizda mintaqa inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarining istiqboldagi 2025-2030-yillarga prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda asosan quyidagi ekonometrik modellardan foydalanildi:

1. Chiziqli regressiya modeli;
2. ARIMA (Autoregressive integrated moving average).

Chiziqli regressiya modelini shakllantirishda 2010-2024-yillar ya’ni 15 yillik davr oralig‘ini qamrab olgan quyidagi ko‘rsatkichlar natijaviy va ta’sir etuvchi omillar sifatida tanlab olindi: natijaviy omil – mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi, mlrd.so‘m – (Y), ta’sir etuvchi omillar – shifokorlar soni, 10 000 aholiga nisbatan, kishi – (X₁), 1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinish darajasi, foiz — (X₂), umumta’lim muassasalarida bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni, kishi — (X₃), bandlik darajasi — (X₄), OTM bitiruvchilari soni, kishi – (X₅).

Prognozlashni ARIMA (Autoregressive integrated moving average) ya’ni “Sirg‘aluvchi o‘rtachaga integrallashgan avtoregression” modelida (p,d,q) tartibi mavjud bo‘lib, bunda p-avtoregressiya parametrini, d-integratsiyalash qismini, q-sirg‘aluvchi o‘rtacha parametrini ifodalaydi. ARIMA modelini umumiy ko‘rinishi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y_t = \alpha + \varphi_1 Y_{t-1} + \dots + \varphi_p Y_{t-p} + \epsilon_t + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \dots + \theta_q \epsilon_{t-q} \quad (10)$$

ARIMA (Autoregressive integrated moving average) modelida prognozlash uchun dastavval mintaqa inson kapitalini ifodalovchi sog‘liqni saqlash, ta’lim va bandlik darajasi ko‘rsatkichlarining har biri uchun ARIMA modeli shakllantirish zarur hisoblanadi.

Mavjud statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan hisob – kitob natijalari asosida mintaqa turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlarini prognozlashga asoslangan “ARIMA” modellari shakllantirildi (10-jadval).

10-jadval.

Mintaqa inson kapitalini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarni prognozlashga asoslangan “ARIMA” va “ARMA modellari natijalari”⁵¹

Dependent variable: (1-L) (X ₁)					
	Coefficient	Std. Error	Z	p-value	
const	0.165834	0.04509	3.678007	0.0002	***
phi_1	-0.0360737	0.01134	-3.181102	0.0015	***
Mean dependent var	0.169231		S.D. dependent var		0.670055
Mean of innovations	0.003363		S.D. of innovations		0.643413
R-squared	0.440776		Adjusted R-squared		0.440776
Log-likelihood	-12.71425		Akaike criterion		31.42850
Schwarz criterion	33.12335		Hannan-Quinn		31.08014
Dependent variable: (1-L) (X ₂)					
	Coefficient	Std. Error	Z	p-value	
const	2.10189	1.21520	1.730	0.0837	*

⁵¹ Manba: muallif ishlanmasi.

phi_1	0.530877	0.240514	2.207	0.0273	**
Mean dependent var	2.215385		S.D. dependent var		2.717795
Mean of innovations	0.173585		S.D. of innovations		2.220607
R-squared	0.959616		Adjusted R-squared		0.959616
Log-likelihood	-28.98288		Akaike criterion		63.96575
Schwarz criterion	65.66060		Hannan-Quinn		63.61738
Dependent variable: (X₃)					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	10.6892	0.309766	34.51	<0.0001	***
phi_1	0.775423	0.169536	4.574	<0.0001	***
theta_1	0.478463	0.223740	2.138	0.0325	**
Mean dependent var	10.83214		S.D. dependent var		0.484676
Mean of innovations	0.037212		S.D. of innovations		0.211067
R-squared	0.802230		Adjusted R-squared		0.785749
Log-likelihood	1.007704		Akaike criterion		5.984592
Schwarz criterion	8.540822		Hannan-Quinn		5.747967
Dependent variable: (1-L) (X₄)					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	0.249038	0.11594	2.14799	0.0317	**
phi_1	-0.345306	0.1355	-2.54835	0.0108	**
Mean dependent var	0.284615		S.D. dependent var		1.287663
Mean of innovations	-0.003254		S.D. of innovations		1.164485
R-squared	0.207717		Adjusted R-squared		0.207717
Log-likelihood	-20.48931		Akaike criterion		46.97861
Schwarz criterion	48.67346		Hannan-Quinn		46.63024
Dependent variable: (1-L)^2 (X₅)					
	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>Z</i>	<i>p-value</i>	
const	232.105	189.002	1.228	0.2194	
phi_1	-0.870083	0.184155	-4.725	<0.0001	***
Mean dependent var	354.5000		S.D. dependent var		1566.745
Mean of innovations	-46.43557		S.D. of innovations		1172.240
R-squared	0.668099		Adjusted R-squared		0.668099
Log-likelihood	-102.5348		Akaike criterion		211.0695
Schwarz criterion	212.5242		Hannan-Quinn		210.5309

*Izoh: *, **, *** - mos ravishda 10%, 5%, 1% statistik jihatdan ahamiyatlilik darajalari*

Yuqoridagi 10-jadvaldagi determinatsiya koeffitsiyenti, standart xatoliklar, F-Fisher, t-Student, Akaike, Shvars mezonlari ko'rsatkichlari shakllantirilgan modellarning barchasini statistik jihatdan ahamiyatli va adekvatligini ifodalamoqda.

Demak yuqorida shakllantirilgan modellardan olib borilgan hisob – kitob natijalari mintaqa inson kapitalini ifodalovchi ko'rsatkichlarini prognozlashda to'liq foydalanish mumkinligini asoslaydi. Mazkur ko'rsatkichlarning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari quyidagi jadvalda berilgan (11-jadval).

11-jadval.

Mintaqa inson kapitalini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni prognozlashga asoslangan “ARIMA”, “ARMA” va “Chizikli regressiya” ekonometrik modellarining qiyosiy natijalari⁵²

	OTM bitiruvchilari soni, kishi					
	ARIMA (1, 2, 0) model bo‘yicha			Chizikli model bo‘yicha		
	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
2025	9704	1172	(7406.2; 12001.4)	5196	1632	(1638.9; 8752.3)
2026	14392	1269	(11904.8; 16878.4)	5490	1675	(1839.6; 9140.3)
2027	16221	1453	(13373.8; 19068.2)	5784	1722	(2031.4; 9537.2)
2028	20972	1555	(17923.1; 24020.1)	6079	1773	(2215.1; 9942.2)
2029	23615	1629	(20421.6; 26807.6)	6373	1828	(2391.2; 10354.9)
2030	28525	1719	(25155.8; 31895.0)	6667	1885	(2560.4; 10774.3)

⁵² Manba: muallif ishlanmasi.

Yillar	Shifokorlar soni, 10 000 aholiga nisbatan, kishi						1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinish darajasi, foiz					
	ARIMA (1, 1, 0) model bo'yicha			Chiziqli model bo'yicha			ARIMA (1, 1, 0) model bo'yicha			Chiziqli model bo'yicha		
	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
2025	29.1	0.69	(27.8; 30.5)	28.2	0.87	(26.3; 30.1)	45.9	4.06	(38.0; 53.9)	39.1	5.66	(26.8; 51.5)
2026	29.3	0.79	(27.8; 30.8)	28.4	0.89	(26.4; 30.3)	48.3	5.72	(37.1; 59.5)	41.5	5.82	(28.8; 54.2)
2027	29.5	0.86	(27.8; 31.1)	28.5	0.92	(26.5; 30.5)	50.6	5.87	(39.1; 62.1)	43.9	5.99	(30.9; 57.0)
2028	29.6	0.91	(27.8; 31.4)	28.6	0.95	(26.5; 30.6)	52.8	6.05	(40.9; 64.6)	46.3	6.18	(32.9; 59.8)
2029	29.8	0.95	(27.9; 31.7)	28.7	0.98	(26.6; 30.8)	54.9	6.18	(42.8; 67.0)	48.7	6.37	(34.8; 62.6)
2030	30.0	0.98	(28.0; 31.9)	28.8	1.01	(26.6; 31.0)	57.0	6.35	(44.6; 69.5)	51.1	6.57	(36.8; 65.4)
	Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi						Bandlik darajasi, foiz					
	ARMA (1, 1) model bo'yicha			Chiziqli model bo'yicha			ARIMA (1, 1, 0) model bo'yicha			Chiziqli model bo'yicha		
	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
2025	10.726	0.34	(10.1; 11.4)	11.500	0.44	(10.5; 12.5)	67.0	1.37	(64.3; 69.6)	66.1	1.39	(63.0; 69.1)
2026	10.718	0.40	(9.9; 11.5)	11.579	0.45	(10.6; 12.6)	67.1	1.42	(64.3; 69.9)	66.2	1.43	(63.1; 69.3)
2027	10.711	0.43	(9.9; 11.5)	11.657	0.46	(10.6; 12.7)	67.4	1.46	(64.5; 70.3)	66.4	1.47	(63.1; 69.6)
2028	10.706	0.44	(9.8; 11.6)	11.736	0.48	(10.7; 12.8)	67.6	1.50	(64.7; 70.6)	66.5	1.52	(63.2; 69.8)
2029	10.703	0.45	(9.8; 11.6)	11.814	0.49	(10.7; 12.9)	67.9	1.54	(64.9; 70.9)	66.6	1.56	(63.2; 70.0)
2030	10.700	0.46	(9.8; 11.6)	11.893	0.51	(10.8; 13.0)	68.1	1.59	(65.0; 71.3)	66.8	1.61	(63.3; 70.3)

Xulosa

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitali faqat iqtisodiy omil emas, balki kompleks strategik resurs bo'lib, u davlat siyosati, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va raqamli transformatsiyani amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uni rivojlantirishda tizimli, innovatsion va institutsional yondashuvlar zarur bo'lib, bu yondashuvlar orqali mintaqaviy tafovutlar kamaytiriladi va barqaror taraqqiyotga erishiladi.

2. Xalqaro tajriba asosida Singapur, Germaniya, Yaponiya va Turkiya kabi mamlakatlarda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı strategiyalar, qonunlar va dasturlar joriy etilgan. Masalan, Singapurda "SkillsFuture" va "MediSave" dasturlari raqamli iqtisodiyotga moslashuvni kuchaytirsa, Germaniyada "DigitalPakt Schule" va "KiTa" qonunlari orqali erta ta'lim va inklyuzivlik ta'minlangan. Yaponiyada "GIGA School" loyihasi raqamli savodxonlikni oshirsa, Turkiyada "EBA" va "e-Nabız" platformalari orqali ta'lim va sog'liqni saqlash raqamlashtirilgan.

3. O'zbekiston uchun bu davlatlar tajribasini tahlil qilish asosida ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini raqamlashtirish, qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi mexanizmlarni joriy qilish, maktabgacha ta'limni kuchaytirish va kasbiy ta'lim tizimini ishlab chiqarish sektori bilan uyg'unlashtirish kabi yo'nalishlar strategik ahamiyat kasb etadi. Bu chora-tadbirlar inson kapitali sifatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

4. Inson kapitali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida zamonaviy dunyoda muhim o'rin tutmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik darajasi kabi ko'rsatkichlar inson kapitalining sifati va samaradorligini baholashda asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi. Hozirgi zamon tendensiyalari, xususan, raqamlashtirish, globalashuv, demografik o'zgarishlar va iqtisodiy transformatsiyalar ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

5. Miqdoriy jihatdan SEM modeli natijalari shuni ko'rsatadiki, Inson kapitalining umumiy ta'siri (to'g'ridan-to'g'ri ta'sir $\{0.420\}$ + bilvosita ta'sir $\{0.228 + 0.162 + 0.104\} = 0.914$) juda kuchli. Iqtisodiy jihatdan Inson kapitali iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili bo'lib, ta'lim, malaka va sog'liqqa qaratilgan investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada rag'batlantiradi. Infratuzilmaning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishiga umumiy ta'siri (0.350) o'rtacha. Iqtisodiy jihatdan Infratuzilma loyihalari (yo'llar, portlar, energetika) iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, ammo uning ta'siri inson kapitaliga nisbatan cheklangan. Ekologik sifat omilining mintaqah iqtisodiy rivojlanishiga umumiy ta'siri (0.280) o'rtacha. Iqtisodiy jihatdan ahamiyati ekologik barqarorlik uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi, ammo qisqa muddatda ta'siri cheklangan. Boshqaruv sifati omili esa mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishiga umumiy ta'siri (0.200) eng zaif. Iqtisodiy jihatdan boshqaruv sifati iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim, ammo mintaqada institutsional islohotlar zarur.

6. Mintaqaviy kontekstda inson kapitalini rivojlantirishni baholashda klaster tahlilidan foydalanish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, bu usul

mintaqalararo tengsizlikni aniqlash va uni bartaraf etish uchun yo‘naltirilgan choralar ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchidan, klaster tahlili mintaqalarning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Uchinchidan, ushbu usul davlat boshqaruvi, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki aniqlangan klasterlar resurslarni birgalikda boshqarish va investitsiyalarni jalb qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

7. Mintaqa shahar va tumanlarini inson kapitali ko‘rsatkichlari asosida “K-means” klasterlash usuli bo‘yicha “Evkilid metrikasi” dan foydlangan holda “yuqori darajadagi inson kapitali klasteri – {Urganch sh.}”, “o‘rta darajadagi inson kapitali klasteri – {Xiva sh., Yangiariq, Yangibozor}”, “o‘rta darajadan past inson kapitali klasteri – {Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva, Shovot}”, “past darajadagi inson kapitali klasteri – {Tuproqqa’la}” ga ajratildi.

8. Mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga inson kapitalini ifodalovchi ko‘rsatkichlarini uzoq va qisqa muddatli ta‘sirini aniqlash maqsadida “Avtoregressiv lagli taqsimot modellari (ARDL)” ishlab chiqildi.

9. Hisoblangan uzoq muddatli ta‘sirining empirik natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ta‘lim sohasiga investitsiyalar uzoq muddatda mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Har 1% ta‘lim investitsiyalarining o‘sishi yalpi hududiy mahsulot hajmini taxminan 6.34% ga, har 1% lik sog‘liq xarajatlarining o‘sishi yalpi hududiy mahsulot hajmini taxminan 5.29% ga, Har 1% bandlikning oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmini taxminan 2.46% ga oshiradi. Modeldagi konstanta (C) qiymati 5.5671 bo‘lib, u boshqa o‘zgaruvchilar hisobga olinmagan holda boshqa omillar (masalan, texnologik taraqqiyot yoki tabiiy resurslar) ning har 1% oshishi yalpi hududiy mahsulot hajmining taxminan 5.57% ga oshiradi.

10. Hisoblangan qisqa muddatli ta‘sirining empirik natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ta‘lim sohasiga investitsiyalar 1% oshsa, mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi qisqa muddatda 0.48% ga, Sog‘liqni saqlash xarajatlari 1% ga oshsa, mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi qisqa muddatda 0.26% ga, Bandlik darajasi 1% ga oshsa, mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi qisqa muddatda 0.67% ga oshadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ
РАЙХАНА БЕРУНИ**

РУЗМЕТОВА ГУЛИРАЪНО АТАБЕКОВНА

**РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ
ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА (НА ПРИМЕРЕ
ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)**

08.00.12 - Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ургенч - 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5189.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.urdu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Шеров Алишер Бакберганович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Худайберганов Дилшод Тухтабоевич**
доктор экономических наук, профессор

Рузметов Шерзодбек Бахтиярович
кандидат экономических наук, доцент

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ____:____ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.1.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхан Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамида Алимджана, 14. Тел.: (99 862) 224-67-00, факс: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхан Беруни (зарегистрирована под номером _____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Хамида Алимджана, 14. Тел.: (99 862) 224-67-00, факс: (99 862) 224-67-00, e-mail: info@urdu.uz.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(реестра протокола рассылки № _____ от «___» _____ 2025 года.).

И. С. Абдуллаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Т. Ж. Рахимов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Б. Рузметов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире человеческий капитал признается одним из важнейших стратегических ресурсов, обеспечивающих экономическое и социальное развитие общества. В условиях XXI века это понятие уже не ограничивается только системами образования и здравоохранения, а характеризуется оценкой в интегрированном состоянии с такими показателями, как широкий спектр социально-экономических факторов, уровень технологического развития, открытость информации, гендерное равенство, социальная справедливость, интеллектуальный потенциал и инновационная деятельность. По данным Всемирного банка, рост валового внутреннего продукта (ВВП) стран, инвестирующих в человеческий капитал, на 2-3% выше, чем в других странах, что подтверждается результатами ряда научных исследований⁵³. Поэтому инвестиции в человеческий капитал играют важную роль в обеспечении долгосрочной экономической стабильности и конкурентоспособности стран. В связи с этим важно проводить исследования о том, какие факторы оказывают первостепенное влияние на развитие человеческого капитала, а также о дальнейшем развитии сфер, обеспечивающих развитие человеческого капитала, и их финансировании с помощью государственного и частного секторов.

В мире вопрос развития человеческого капитала и его совершенствования в разрезе регионов широко признается в качестве одного из основных драйверов современного экономического развития. Человеческий капитал трактуется не только как фактор производства, но и как стратегический ресурс, определяющий инновационный потенциал, конкурентоспособность и экономическую стабильность. Проведенные исследования показывают, что даже небольшой рост индекса человеческого капитала значительно ускоряет темпы экономического роста. Это наглядно демонстрирует стратегическую важность инвестиций в сферы образования и здравоохранения. Исследования также показывают, что тесная взаимосвязь между человеческим капиталом и региональным развитием приобретает особую актуальность, особенно в условиях территориальной диверсификации экономических инициатив. Поэтому важно проводить глубокие научные изыскания по развитию человеческих ресурсов в регионах и усилению их влияния на территориальное развитие.

В Новом Узбекистане человеческий капитал стал основным фактором развития. На совещании под председательством уважаемого Президента Шавката Мирзиёева были глубоко проанализированы актуальные проблемы в сфере высшего образования, науки и инноваций, критически оценено реальное состояние существующей системы. Исходя из этого, определено продолжение системной работы, направленной на развитие человеческого капитала,

⁵³ World Bank – Human Capital Project, <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>

